

**Jamila Ergasheva hikoyalarida davr va zamon muammosining o‘ziga
xosligi**

Umida Choriyeva
TerDU o’qituvchisi

Badiiy asarda davr taqozo etgan vazifalar odamlar tomonidan turlicha idrok etiladi. Shaxs davrning mohiyat o‘zgarishiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Turli tarixiy davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, mutafakkiru allomalar ham zamon o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini o‘zicha anglab, unga turlicha munosabatda bo‘lganlar. Shuning bilan birga davrni o‘ziga xos mazmun va ma’no bilan boyitgan. Mamlakat taraqqiyotida qahramon tub islohotlarni amalga oshirib, zamonning ixtiloflarini te’ran ilg‘aydi hamda uni tezda bartaraf etadi.

Qahramon taqdiri masalasida Jamila Ergasheva asarlari obraz va personajlari o‘ziga xoslik kasb etadi. Adiba – jarayondagi shaxs va uning o‘ziga xos psixologik dunyosini qiziqarli va o‘ta qaltis voqeliklar tasviri asnosida ko‘rsatishga qaratilgan qissalari bilan tanilgan yozuvchi. Adibaning “Ajdarko‘l”, “Intiqom”, “Tanazzul”, “Yopiq derazalar” singari o‘tkir syujetli asarlari o‘quvchi e’tiborini o‘ziga mixlab oladi. Uning asarlarida “Ayol dunyosi tilsimli dunyo ekani, zohiriylar harakatlarinigina kuzatish orqaligina bu olamni qisman egallash mumkinligi, dugona tutungan ayollarning turmush so‘qmoqlaridan qay tariqa odimlagani, orzu-istiklari, armonu izardiroblarining yorqin tasvirlangani milliy nasrimiz uchun deyarli, yangilik ekani tasvirlanadi” . Adiba asarlari o‘zbek ayoli ruhiyatining ne qadar kuchli, ba’zi o‘rinlarda ojiz ekani bilan e’tiborni tortadi.

Darhaqiqat badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealar makon va zamonda voqelanadi. Shu sababki, badiiy adabiyotda badiiy vaqt tushunchasi keng talqin etiladi. Professor D.Quronov “Nazariy qaydlar” asarida ayni shu masala xususida shunday fikr yuritadi: “Badiiy asarda tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqt bilan ularni hikoya qilish vaqtini farqlash kerak. Asardagi voqealarning yuz berish vaqtini “syujet vaqt”, ularning hikoya qilinish vaqtini esa “kompozitsiya vaqt” deb olinsa, u holda bu ikkisining har vaqt ham bir-biriga mos kelmasligini ko‘rish qiyin emas. Chunki asar ustida ishlayotgan yozuvchi ijodiy niyatini amalga oshirish yo‘lida “badiiy vaqt” imkoniyatlaridan turli yo‘slnlarga foydalanishi mumkin. U zarur o‘rinda asar vaqtidan chekinib, o‘tmishda yuz bergen voqealarni tasvirlashi (retrospektiv vaqt) mumkin” . Ijodkor voqealarning yuz berishi jihatidan bir paytga to‘g‘ri keladigan tasvirni navbatli bilan ifodalashi ham mumkin. Bu epik asarlarda badiiy vaqt imkoniyatining ancha kengligini ko‘rsatishi bilan ahamiyatli. Shaxs ongi va faoliyati muammolari yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar ishlarini olib borgan, ruhshunoslik sohasida o‘z ilmiy mifikabini barpo etgan olim S.L.Rubinshteyn badiiy matnda qahramon psixologiyasining tasviri haqida shunday yozadi: “Ichki hayoti bilan hisoblashib yashovchi har qanday odam



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bosib o'tgan yo'lini tahlil qilish uchun ortga qarar ekan, ongida umrining alohida betakror, shukuhli onlari yorqin kechinmalar sifatida chuqur iz qoldirganligi bilan bog'liq xotiralar uyg'onadi. Qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, so'z san'atkorlari aynan uning kechinmalari – o'sish-kamolotga erishishdagi individual yo'lini hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Zero, inson kechinmalari – bu uning real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo'lining obyektiv aspektidir". Shu nuqtai –nazardan qaraganda, Jamila Ergasheva asarlarida qo'llanilgan badiiy-psixologik tasvir ifodasi diqqatga molikd. Inson psixologiyasidagi o'zgarishlar, tebranishlar, qalb to'lg'amlarining og'ir yuki, fikrlar va hislar oqimining rivoji adiba ijodida potensial nuqtai nazaridan yuksak va mazmundor qatlamni hosil qiladi.

Har qanday san'at turida, xususan, badiiy adabiyotda ijodkor o'quvchiga insonning his-tuyg'ulari, tajribalari haqida gapiradi. Ammo, insonning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borish bu, albatta, badiiy adabiyot bilan bog'liq. Bu haqida rus olimi Esin shunday yozadi: "Inson hayotining sotsial va ijtimoiy xarakterini aks ettirib, san'at va, xususan, adabiyot nafaqat ijtimoiy, balki eng avvalo, psixologik tiplarni yaratadi. San'atda sotsial hodisalar psixologik hodisalar orqali anglashiladi. U yoki bu xarakterni yaratganda yozuvchi betakror o'ziga xoslikni ifodalovchi yangi individuallik yangi shaxsni yaratadi. Ilmiy psixologiyada shaxsning o'ziga xos chiziqlari qahramon deyiladi. Qahramon – so'zsiz psixologik hodisadir. Mana shu so'z sabab bo'lib, psixologiya va qahramon bir-biriga yaqinlashadi va deyarli sinonimga aylanadi". Qahramonning ruhiy olamiga kirib borish, ko'ngilning turli xil holatlarini, sharoitlarini tahlil qilish, qahramonning psixologik tovlanishlariga, soyalariga e'tibor qaratish muhim sanaladi.

Darhaqiqat, shaxsning jamiyatdagi o'rnini xalqdan ayro tasavvur qilish mumkin emas. Xalqda qahramon, muayyan qahramonda esa shu millatning madaniyati, adabiyoti muayyan darajada tajassum topadi. Bu murakkab adabiy jarayon natijasida qahramon yo o'z xalqi bilan uyg'unlashadi yoki undan uzoqlashib begonalashadi. Xo'sh, bu hodisa qanday sodir bo'lishi mumkin? Bu hol shaxsning ma'naviy, axloqiy, siyosiy dunyosi, tasavvuri, axloq normalari, xatti-harakati va maqsadlari bilan bog'liq. Bundan tashqari, qahramonning borliq to'g'risidagi tasavvur va qarashlarning mohiyatida yotgan tamoyil va me'yorlar ularning jamiyatdagi mavqeい nima bilan tugashi hamda baholanishini ma'lum ma'noda oldindan belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жамила Эргашева. Зулфизар. “Ёшлик” журнали. 2011-йил, 8-сон
 2. Kenjayeva Poshshajon Umidovna. Hozirgi o’zbek hikoyalarida qahramon ruhiytini tasvirlash tamoyillari. Avtoreferat. Toshkent – 2008. 12-bet
 3. Глобаллашув: бадиий талқин, замон ва қаҳрамон. – Тошкент: Фан, 2018. 67-б. (352)
 4. Shaymardanova, A. R. (2021). O ‘ZBEK TILINING INTRALINGVAL LAKUNALARI“. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, 234.
 5. Shaymardanova, A. (2020). THE ROLE AND POSITION OF LACUNAS OF CULTURAL LOCATION IN THE PROCESS OF COMMUNICATION (CAN THE WORD “YANGA” BE THOUGHT TO BE A LACUNA IN UZBEK LANGUAGE?). Theoretical & Applied Science, (12), 322-325.
 6. Shaymardanova, A. (2021). Компьютерный Перевод Культурных Характеристик Проблема Изготовления. Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects, 1(1).
 7. Makhamadievna, A. M., & Tulkunovna, R. N. (2021). Teaching foreign language by using effective methods. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 47-50.
 8. Makhamadievna, A. M. (2022). Effective Teaching English Language to Non-Linguistic Students by Using Project Based-Learning. The Peerian Journal, 6, 48-51.
 9. И. Султон, Адабиёт назарияси,- Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980 йил, 131-132 – бетлар
 10. Қурунов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018. 12-б. (128)
 11. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – Питер, 2000. – С.13.
- 

